




## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



### O'ZBEKISTONDA ZAMAXSHARIYSHUNOSLIK TADQIQOTLARI ISTIQBOLLARI

**Zohidjon Islomov**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor,*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

**Shuhrat Mirziyatov**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Mahmud Zamaxshariy, zamaxshariyshunoslik, ilmiy meros, "Muqaddamatu-l-adab", "Atvoqu-z-zahab", ko'ptillik lug'at, pand-nasihat, qo'lyozma, nusxa, fiqh, sunniylik.

**Annotatsiya:** Mahmud Zamaxshariy adabiyotshunoslik, tilshunoslik, lug'atshunoslik, islomshunoslik kabi ilm-fanning qator sohalari bo'yicha barakali ijod qilgan. U mana shu sohalarga oid 86 ta nodir, ilmiy ahamiyatga ega asarlar yaratgan. Dunyodagi barcha qo'lyozma fondlarida olim asarlarining nodir nusxalari mavjud. Mustaqillik yillarida Zamaxshariy ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbek xalqi o'z alloma bobosining ma'naviy merosidan bahramand bo'lmoqda.

### PROSPECTS OF ZAMAKHSHARIAN STUDIES IN UZBEKISTAN

**Zohidjon Islomov**

*Doctor of Philosophy in Philology, Professor,*

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Shukhrat Mirziyatov**

*Doctor of Philosophy in Philological Sciences, PhD*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Makhmoud Zamakhshari, scientific heritage, "Mukaddamatu-l-adab", "Atvoku-z-zakhab", monolingual dictionary, advise,

**Abstract:** Makhmoud Zamakhshari worked on various spheres of science as literature, linguistics, lexicography and learning Islam. He created 86 rare and scientific valuable creative works. There are copies of creative works of the scholar in all manuscript fund of the world. It was organized

manuscript, copy, fikh, sunni

a lot of research for learning scientific heritage of the scholar. Uzbek people adore of spiritual heritage of their scholar.

## ПЕРСПЕКТИВЫ ЗАМАХШАРИСТСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Зоҳиджон Исломов**

*доктор философии по филологическим наукам, профессор  
Международная исламская академия Узбекистана*

**Шухрат Мирзиятов**

*Доктор философии по филологическим наукам, PhD,  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

#### Ключевые слова:

Махмуд Замахшари, замахшариведение, научное наследие, “Мукаддамоту-ла-адаб”, “Атвоку-з-захаб”, многоязычный словарь, назидание, рукопись, список, мусульманское право, суннитский.

#### Аннотация:

Махмуд Замахшари написал множество произведений по литературоведению, языкознанию, лексикографии, исламоведению и другим отраслям науки. К его перу относится 86 ценных научных трудов. Почти во всех рукописных фондах мира имеются ценные списки трудов ученого. В годы независимости осуществлены множество научных исследований по изучению научного наследия Замахшари. Узбекский народ бережно относится к духовному наследию ученого.

## KIRISH

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan markazlardan biri sanaladi. Bu mo‘tabar zaminda islom ilmi, fani va madaniyatiga o‘zining o‘lmas asarlari bilan beqiyos hissa qo‘shgan, uni dunyoga tanitgan minglab olimlar dunyoga kelgan. Bu benazir allomalarning asarlari o‘z davri ilm fanining turli sohalariga bag‘ishlangan va dunyo olimlari tomonidan e’tirof etib kelingan. Mana shunday buyuk zotlar qatorida alloma, buyuk salohiyat sohibi, adab ilmining sultoni Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning munosib o‘rni bor.

“Arablar va ajamlar ustozlari”, “Adiblar ka‘basi”, “Xorazm faxri” “Allohning qo‘shnisi”, “Islom toji”, “Jorulloh” kabi sharafli nomlar va unvonlar bilan shuhrat topgan Mahmud Zamaxshariy juda katta hajmdagi ulkan ma‘naviy, ilmiy meros yaratib qoldirgan. Olimning asarlari tilshunoslik, lug‘atshunoslik, adabiyotshunoslik, tafsirshunoslik, geografiya, mantiq, balog‘at, fasohat, fiqh, didaktika kabi fan sohalariga bag‘ishlangan. Ular o‘zining ilmiyligi, tilining mukammalligi, uslubining puxtaligi, qamrovining kengligi bilan ajralib turgan.

Arab tarixchisi Ibn Xallikon (1211-1282-y.y.) «Vafoyotu-l-a‘yon va anbai abnai-z-zamon» nomli kitobida Mahmud Zamaxshariyning 30 ta asar yozganligini ko‘rsatadi.<sup>1</sup> Qomusiy olim Yoqut Hamaviy esa o‘zining «Mu‘jamu-l-buldon» asarida olimning 50 ta asarini zikr etadi.<sup>2</sup> Istanbulda chop etilgan Islom ensiklopediyasida Zamaxshariyning 54 ta asari haqidagi ma‘lumot bor.<sup>3</sup> Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining ko‘lami haqidagi tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, Muhammad Bosil «Asosu-l-balog‘a» asariga bag‘ishlangan

<sup>1</sup> Qarang: Ibn Xalliqon. Vafoyotu-l-a‘yon va anbau abnai-z-zamon. –Misr: 1881. J.I. 107-110s.

<sup>2</sup> Qarang: Yoqut Hamaviy. Mu‘jamu-l-buldon. –Misr. Doru-s-saodat. 1908. 388-389s.

<sup>3</sup> Islam ansiklopedisi/ 13-cilt/-Istanbul^ 1986/ 511-514g/

tadqiqotida olimning 66 ta asarini sanab o'tadi.<sup>4</sup> Olimning ilmiy laboratoriyasi borasidagi yangi tadqiqotlar uning qalamiga mansub 86 ta asar mavjudligini ko'rsatmoqda<sup>5</sup>.

Olimning asarlariga qiziqish o'zi yashagan davrdanoq boshlangan. Ma'lumki, sharq an'analariga muvofiq muhim ilmiy asarlarga bag'ishlab olimlar sharh va hoshiyalar yozishgan, bu esa mazkur asarning ilmiy doiralarda alohida ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatgan. Mahmud Zamaxshariy asarlariga ham qator olimlar tomonidan sharhlar va hoshiyalar bitilgan. Jumladan, eronlik Sharafuddin Isfahoniyning "Atboqu-z-zahab", turkiyalik Mavsiliy Qodiriyning<sup>6</sup> "Axloqu-z-zahab", misrlik Ahmad Shavqiyning "Asvoqu-z-zahab" asarlari Zamaxshariyning mashhur "Atvoqu-z-zahab"i asosida yaratilganligi, shuningdek, "Mufassal fi san'ati-l-i'rob" asariga bag'ishlangan 24 ta, "Kashshof" tafsiriga yozilgan 24 ta sharh, 11 ta muxtasar, "Unmuzaj fi-n-nahv"<sup>7</sup> risolasiga bitilgan 8 ta sharh, "Navobig'u-l-kalim" asariga yozilgan 7 ta sharh va yana qator asarlar, ularning qayta-qayta qo'lyozma holida ko'chirilgan sharhlari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi sharq olimlari Abu Barokot Anbariy<sup>8</sup>, Ibn Qiftiy<sup>9</sup>, Yoqut Hamaviy<sup>10</sup>, Muhammad Ibn Xalikon<sup>11</sup>, Mirzo Muhammad Boqir<sup>12</sup>, Usmon Zahabiy<sup>13</sup>,

<sup>4</sup> Az-Zamaxshariy. Asos al-balag'a. J.1. Bayrut.1998.1-10s.

<sup>5</sup> Islomov Z. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent. 2023.-B.24.

<sup>6</sup> Qarang: Sharafuddin al-Isfahoni. "Atvoqu-z-zahab". ToshDSHI Sharq qo'lyozmalari markazi. qo'lyozma. №4378.

<sup>7</sup> Qarang: Арабские рукописи ИВ АН СССР. Краткий каталог. Т.,1. М., 1986. №6933-7008..

<sup>8</sup> Ibn Anbariy. Nuzhatu-l-alibba fi tabaqoti-l-udabo. Muhaqqiq: Ibrohim Samarroiy. Maktabatu-l-manor. 1985.

<sup>9</sup> Ali b. Yusuf Qiftiy. Inbahu-r-ruvud ala anbah-n-nuhah. Muhaqqiq: Muhammad Abulfadl Ibrohim. Bayrut.1986.

<sup>10</sup> Yoqut Hamaviy. Mu'jamu-l-udabo.

<sup>8</sup> ياقوت بن عبد الله الحموي. معجم الأديباء. الناشر: عيسى البابي الحلبي. 1936/1355.

<sup>8</sup> ابن خلكان. وفيات الأعيان وانباء أبناء الزمان. المحقق: إحسان عباس. الناشر: دار صادر. 1977/1397.

<sup>8</sup> الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.

<sup>8</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>8</sup> مصطفى بن عبد الله كاتب جلبي القسطنطيني - حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. دار إحياء التراث العربي. 1941.

<sup>8</sup> أحمد بن مصطفى الشهير بطاش كبري زادة. مفتاح السعادة ومصباح السيادة في موضوعات العلوم. دار الكتب العلمية. 1985/1405.

<sup>8</sup> عبد الحي بن أحمد بن محمد ابن العماد العسكري الحنبلي. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. المحقق: عبد القادر الأرنؤوط - محمود الأرنؤوط. الناشر: دار ابن كثير. 1986/1406.

<sup>8</sup> ابن خلكان. وفيات الأعيان وانباء أبناء الزمان. المحقق: إحسان عباس. الناشر: دار صادر. 1977/1397.

<sup>8</sup> الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.

<sup>8</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>8</sup> الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.

<sup>8</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>8</sup> مصطفى بن عبد الله كاتب جلبي القسطنطيني - حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. دار إحياء التراث العربي. 1941.

<sup>8</sup> أحمد بن مصطفى الشهير بطاش كبري زادة. مفتاح السعادة ومصباح السيادة في موضوعات العلوم. دار الكتب العلمية. 1985/1405.

<sup>8</sup> عبد الحي بن أحمد بن محمد ابن العماد العسكري الحنبلي. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. المحقق: عبد القادر الأرنؤوط - محمود الأرنؤوط. الناشر: دار ابن كثير. 1986/1406.

<sup>8</sup> عليرضا باقر، عليرضا مختارپورقهرودي. . فخر خوارزم (مروری بر زندگی و آثار جاراالله زمخشری). سال چاپ: 1388

<sup>8</sup> زهره آنری. كتاب جاراالله زمخشری و اشعار او: پژوهشی سبک شناسی. سال چاپ: 1398

<sup>8</sup> М.Сирождидинзода. Проблемы рационализма в философских и религиозных воззрениях аз-Замахшари. Кандидатская диссертация. Душанбе. 2016.

<sup>8</sup> احمد محمد الحوفي. الزمخشري. الناشر: دار الفكر العربي. 1966/1396.

<sup>8</sup> فاضل صالح السامرائي. الدراسات النحوية واللغوية عند الزمخشري. الناشر: مطبعة الإرشاد. 1971/1390.

<sup>8</sup> Brockelmann C. Geschichte der arabischen literatur. Bd. I. – Leidin, 1937.

<sup>8</sup> Бартольд В.В. Рукописи Замахшари со старотюркскими глоссами. Сочинения. Т. 8, М., 1973. С. 465-468.

<sup>8</sup> Крымский А. Арабская литература в очерках и образцах. М., 1911.

<sup>8</sup> Поппе Н.Н. Монгольский словарь "Мукаддима ту-л-адаб" Т.1, 2. изд. АНССР, М., 1938.

<sup>8</sup> Б.З.Халидов. Замахшари (о жизни и творчества). Семитские языки. М., 1965, Б.З.Халидов, А.Б.Халидов. Биография аз-Замахшари, составленная его современником ал-Андарасбани – П.П.В (ежегод.) 1973, 1979, - С.203, 212

<sup>8</sup> Боровков А.К. Тюркские глоссы в Бухарском списке "Мукаддима ту-л-адаб". М., 1971.

Hoji Xalifa<sup>14</sup>, Ahmad ibn Mustafu Toshko‘prizoda<sup>15</sup>, Ibn Imad Hanbaliy<sup>16</sup>, Ali Rizo Boqir, Ali Rizo Muxtorfur Qahrudiy<sup>17</sup>, Zuhra Ozariy<sup>18</sup>, M.Sirojiddinzoda<sup>19</sup>, Ahmad Muhammad Xufiy<sup>20</sup>, Fozil Solih Samarroi<sup>21</sup> kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mahmud Zamaxshariy ma’naviy merosi bilan g‘arb olimlari ham shug‘ullanganlar jumladan, Karl Brokelman<sup>22</sup>, V.Bartold<sup>23</sup>, A.Krimskiy<sup>24</sup>, N.Poppe<sup>25</sup>, B.Xalidov, A.Xalidov<sup>26</sup>, A.Borovkovlarni<sup>27</sup> sanab o‘tish mumkin. Yurtimizda ham alloma ijodi bilan bog‘liq qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada

<sup>8</sup> Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. T.: “Fan”, 1971.

<sup>8</sup> Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. “Nozik iboralar”. U.Uvatov tarjimasini. T.: “Kamalok”, 1992, “Mahmud az-Zamaxshariy”. T.: “Meros”, 1995, “Xorazmlik buyuk alloma”. T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.

<sup>8</sup> “Zamaxshartasbehioyud 101 manzuma”. Fozil Zohid. Tarjimon R.Zohid. – T.: Muharrir, 2011.

<sup>8</sup> Islomov Z.M. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asaridagi turkiy fe‘llar tahlili / Filol. fan. nom. ... diss. T, 1993, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe‘llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni (Toshkent qo‘lyozmalari asosida) / Filol. fan. dok. ... diss. T, 1998. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi. “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent. 2023.

<sup>8</sup> Hakimjonov M.Yu. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asaridagi arabcha-turkiycha so‘zlikning leksikografik tahlili / Ismlar / Filol. fan. nom. ... diss. Toshkent. 1994.

<sup>8</sup> Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi – arab tili grammatika sig‘a oid asar. Filol. fan. nom. ... diss. Toshkent. 2003.

<sup>8</sup> Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy “Asos al-balog‘a” sining manbashunoslik tadqiqi. Filol. fan. nom. ... diss. – T., 2007.

<sup>8</sup> Qosimova S. XI–XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari. Filol. fan. bo‘y. fal. dok. (PhD) diss. Toshkent. 2019.

الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.  
<sup>9</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>9</sup> مصطفى بن عبد الله كاتب جليبي القسطنطيني - حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. دار إحياء التراث العربي. 1941.  
<sup>9</sup> أحمد بن مصطفى الشهير بطاش كبري زادة. مفتاح السعادة ومصباح السيادة في موضوعات العلوم. دار الكتب العلمية. 1985/1405.  
<sup>9</sup> عبد الحي بن أحمد بن محمد ابن العماد العكري الحنبلي. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. المحقق: عبد القادر الأرنؤوط - محمود الأرنؤوط. الناشر: دار ابن كثير. 1986/1406.

<sup>9</sup> عليرضا باقر، عليرضا مختارپورقهرودي. . فخر خوارزم (مروری بر زندگی و آثار جاراالله زمخشری). سال چاپ: 1388  
<sup>9</sup> زهره آنری. کتاب جاراالله زمخشری و اشعار او: پژوهشی سبک شناسی. سال چاپ: 1398  
الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.  
<sup>9</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>10</sup> الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. 1970/1390.

<sup>13</sup> محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرنؤوط - بشار معروف - آخرون. الناشر: مؤسسة الرسالة. 1985/1405.

<sup>14</sup> مصطفى بن عبد الله كاتب جليبي القسطنطيني - حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. دار إحياء التراث العربي. 1941.  
<sup>15</sup> أحمد بن مصطفى الشهير بطاش كبري زادة. مفتاح السعادة ومصباح السيادة في موضوعات العلوم. دار الكتب العلمية. 1985/1405.  
<sup>16</sup> عبد الحي بن أحمد بن محمد ابن العماد العكري الحنبلي. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. المحقق: عبد القادر الأرنؤوط - محمود الأرنؤوط. الناشر: دار ابن كثير. 1986/1406.

<sup>17</sup> عليرضا باقر، عليرضا مختارپورقهرودي. . فخر خوارزم (مروری بر زندگی و آثار جاراالله زمخشری). سال چاپ: 1388  
<sup>18</sup> زهره آنری. کتاب جاراالله زمخشری و اشعار او: پژوهشی سبک شناسی. سال چاپ: 1398

<sup>19</sup> M.Сирожддинзода. Проблемы рационализма в философских и религиозных воззрениях аз-Замахшари. Кандидатская диссертация. Душанбе. 2016.

<sup>20</sup> احمد محمد الحوفي. الزمخشري. الناشر: دار الفكر العربي. 1966/1396.

<sup>21</sup> فاضل صالح السامرائي. الدراسات النحوية واللغوية عند الزمخشري. الناشر: مطبعة الإرشاد. 1971/1390.

<sup>22</sup> Brockelmann C. Geschichte der arabischen literatur. Bd, I. – Leiden, 1937.

<sup>23</sup> Бартольд В.В. Рукописи Замахшари со старотюркскими глоссами. Сочинения. Т. 8, М., 1973. С. 465-468.

<sup>24</sup> Крымский А. Арабская литература в очерках и образцах. М., 1911.

<sup>25</sup> Поппе Н.Н. Монгольский словарь “Мукаддимату-л-адаб” Т. 1, 2. изд. АНССР, М., 1938.

<sup>26</sup> Б.З.Халидов. Замахшари (о жизни и творчества). Семитские языки. М., 1965, Б.З.Халидов, А.Б.Халидов. Биография аз-Замахшари, составленная его современником ал-Андарасбани – П.П.В (ежегод.) 1973, 1979, - С.203, 212

<sup>27</sup> Боровков А.К. Тюркские глоссы в Бухарском списке “Мукаддимату-л-адаб”. М., 1971.

A.Rustamov<sup>28</sup>, U.Uvatov<sup>29</sup>, R.Zohid<sup>30</sup>, Z.Islomov<sup>31</sup>, M.Hakimjonov<sup>32</sup>, M.Nosirova<sup>33</sup>, N.Sulaymonova<sup>34</sup>, S.Qosimova<sup>35</sup>, Sh.Mirziyatov<sup>36</sup> va D.Xudjanova<sup>37</sup>, A.Boltayev<sup>38</sup>, L.To'rayev<sup>39</sup>, S.Sayidjalolov<sup>40</sup> ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida ayniqsa Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekiston davrida zamaxshariyshunoslik sohasidagi tub va ulkan burilishlar amalga osha boshlaganligini ko'rish mumkin. Sharqshunos, islomshunos olimlar tomonidan mustaqillik yillarida 10 dan ortiq dissertatsiyalar, jumladan, "Muqaddamatu-l-adab" asari yuzasidan uchta nomzodlik, bitta doktorlik dissertatsiyalari, "Mahmud Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj fi-n-nahv» risolasi arab tili grammatikasiga oid asar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, "Asosu-l-balog'a" asari tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Hozirda "Rabi'u-l-abror va nususu-l-axyor", "Maqomot", "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavo'iz va-l-xutab", "Mufassal", yangi topilgan fiqh ilmiga oid "Ruusu-l-masoyil" kabi asarlarning ilmiy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Muqaddamatu-l-adab" asaridagi arabiy-turkiy fe'llarning yig'ma ilmiy-tanqidiy matnining<sup>41</sup> yaratilishi, "Muqaddamatu-l-adab"ning manbashunoslik tahlili<sup>42</sup>, "Adab ilmining durdonasi"<sup>43</sup> risolalari, P. Shermuhamedov tomonidan "Yaxshilar bahori yohud Mahmud Zamaxshariy dahosi" nomli ilmiy-tarixiy roman, Fozil Zohidning "Zamaxshariy tasbehi yoxud 101 manzuma", "Oltin shodalar" kitoblarining nashr etilishi, "Unmuzaj fi-n-nahv" va boshqa grammatik asarlarga bag'ishlangan ilmiy, o'quv adabiyotlar bu sohadagi muhim yutuqlardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Mahmud Zamaxshariy merosini o'rganishning o'ziga xos ilmiy maktabi shakllandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki yosh tadqiqotchilarning alloma merosiga qiziqishi katta, shu bois ular tomonidan olim asarlariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirga qadar ulkan ilmiy meros yaratgan Mahmud Zamaxshariyning barcha asarlari topilib, ilmiy istifodaga kiritilgan emas. Jumladan, akademik A.Rustamov olimning nomlari ma'lum

<sup>28</sup> Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. T.: "Fan", 1971.

<sup>29</sup> Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. "Nozik iboralar". U.Uvatov tarjimasini. T.: "Kamalak", 1992, "Mahmud az-Zamaxshariy". T.: "Meros", 1995, "Xorazmlik buyuk alloma". T.: "Yangi asr avlodi", 2006.

<sup>30</sup> "Zamaxshariy tasbehi yoxud 101 manzuma". Fozil Zohid. Tarjimon R.Zohid. – T.: Muharrir, 2011.

<sup>31</sup> Isломov Z.M. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asaridagi turkiy fe'llar tahlili / Filol. fan. nom. ... diss. T, 1993, Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asarining qo'lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe'llar so'zligining yig'ma ilmiy-tanqidiy matni (Toshkent qo'lyozmalari asosida) / Filol. fan. dok. ... diss. T, 1998. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent. 2023.

<sup>32</sup> Hakimjonov M.Yu. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asaridagi arabcha-turkiycha so'zlikning leksikografik tahlili / Ismlar/ Filol. fan. nom. ... diss. Toshkent. 1994.

<sup>33</sup> Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" risolasi – arab tili grammatikasiga oid asar. Filol. fan. nom. ... diss. Toshkent. 2003.

<sup>34</sup> Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy "Asos al-balog'a"ning manbashunoslik tadqiqi. Filol. fan. nom. ... diss. – T., 2007.

<sup>35</sup> Qosimova S. XI–XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari. Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss. Toshkent. 2019.

<sup>36</sup> Mirziyatov Sh. "Muqaddamatu-l-adab" asarida tilshunoslik, lug'atshunoslik an'analari va arabiy-turkiy so'zlikning leksik-semantik talqini". Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss. Toshkent. 2019.

<sup>37</sup> Xudjanova D. XII asrda Movarounnahrda yaratilgan aruz ilmiga oid manbalar (Mahmud Zamaxshariy va Abu Hafsi Nasafiy asarlarasosida). Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss. Toshkent. 2020.

<sup>38</sup> Boltayev A. Az-Zamaxshariyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Siyos. fan. nom. ... diss. Toshkent. 2007.

<sup>39</sup> To'rayev L. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida "Rabi' al-abror" asari muhim manba sifatida. Tar.fan. bo'y.fal.dok(PhD)diss. Toshkent.2022.

<sup>40</sup> Sayidjalolov S. Mahmud Zamaxshariyning "Ruusu-l-masoyil" asarida hanafiy mazhabi talqini. Tar.fan. bo'y.fal.dok(PhD)diss. Toshkent.2023.

<sup>8</sup> Mahmud Zamaxshariy. "Muqaddamatu-l-adab" (fe'llar). Matn tuzuvchi Z. Isломov. "Toshkent islom universiteti" nashriyoti. Toshkent, 2002, 56 b.t.

<sup>42</sup> Z.Isломov. "Muqaddamatu-l-adab" (manbashunoslik tahlili). Toshkent, 2002, 5 b.t.

<sup>43</sup> Z. Isломov. "Adab ilmining durdonasi". Toshkent, 2002, 1,5 b.t.

lekin o'zi topilmagan qator asarlarini aniqlagan<sup>44</sup>. Mustaqillik barcha allomalarimiz qatori Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosini ham jahon qo'lyozma fondlaridan izlab o'rganish imkoniyatini berdi. Bu xayrli sa'yi harakat natijasida uning Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Eron, Arab davlatlari kabi xorijiy mamlakatlar fondlaridagi qo'lyozmalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, "Muqaddamatu-l-adab" asarining 10 ga yaqin nodir qo'lyozmalaridan olingan nusxalar ayniqsa, tarixda o'z yurtimiz hududida ko'chirilgan va tashqariga olib chiqib ketilgan qo'lyozmalarning nusxalari qaytarib kelindi.

Mahmud Zamaxshariy mustaqillik yillarida hanafiy mazhabi faqih sifatida ham o'rganila boshlandi. Chunki Qurashiy "Javohiru-l-muziya fi taboqati-l-hanafiya", Ibn Qutlubug'a "Toju-t-tarojim", Abdulhay Laknaviy "Favoidu-l-bahiya" asarlarida Zamaxshariyning hanafiy mazhabining ulug' faqihlaridan deb e'tirof etganlar. Olimning fiqhga oid "Mu'jamu-l-hudud" – (Hadlar majmuasi), "Roiz fi ilmi-l-faroiz" – (Meros ilmi o'rgatuvchi), "Ruusu-l-masaili-l-xilafiya bayna-l-hanafiya va-sh-shofi'iy"- (Hanafiy va shofi'iy mazhablari o'rtasida ixtilofli bo'lgan asosiy masalalar)ga bag'ishlangan asarlari mavjud. Shuningdek, manbalarda Zamaxshariyning hanafiylikdagi mashhur kitob "Muxtasari Quduriy"ga sharh yozgani, Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitga bag'ishlangan "Shaqoiqu-n-Nu'mon fi manaqibi-n-Nu'mon"- "No'mon tazkirasidagi qizil guldasta", Imom Shofe'iy haqida "Shofe'iyning dardga davo kalomi" nomli kitoblari zikr etilgan.

Mahmud Zamaxshariyning fiqhiy merosi shu vaqtgacha alohida tadqiq etilmagan. Uning yuqorida zikr etilgan fiqhiy asarlaridan birgina "Ruusu-l-masayil"ning qo'lyozmasi Irlandiyaning Dublin shahrida Shesterbiti kutubxonasida 3600-raqam ostida saqlanadi, bu qo'lyozmaning faksimil nusxasi Makkai mukarramadagi "Ummu-l-quro" universitetining kutubxonasida mavjudligi zikr qilinadi. 1987-yili doktor Abdulloh Nazir Ahmad tomonidan Zamaxshariyning ushbu fiqhiy asari tadqiq qilinib, Bayrutdagi "Doru-l-bashairi-l-islomiya" nashriyotida chop etilgan.

"Ruusu-l-masayil" boshqa fiqhiy kitoblardan qiyosiy uslubi bilan ajralib turadi. Asarda allomaning fiqh ilmini, ayniqsa hanafiy va shofe'iy mazhablariga tegishli masalalarni chuqur bilganligi aniq ko'rinadi. Zamaxshariy har bir mazhab masalasini berish bilan birga uning dalilini ham keltirgan. Uni qiyosiy huquqshunoslik bo'yicha yozilgan nodir manba sifatida baholash mumkin. Asarda hanafiy va shofe'iy mazhablari orasidagi 406 ta ixtilofli masalalarning bayoni keltirilgan. Ular islom huquqining ibodot hamda muomalot masalalariga oid 42 sohasini qamrab oladi. Jumladan, asarda poklikka tegishli 38 ta masala berilgan. Har bir savol tarzida berilgan huquqiy masalaga hanafiy va shofe'iy mazhabi nuqtayi nazaridan javoblar berilgan. Javoblar oyat, hadis va boshqa huquqiy manbalar bilan asoslangan. Mahmud Zamaxshariy hanafiylik dalilini "bizning dalilimiz" deb beradi. Shuningdek asardan ibodatga tegishli namoz, zakot, ro'za, haj masalalari, muomalotga oid savdo, garov, kafolat, sherikchilik, nikoh, taloq, qasos masalalari o'rin olgan. Mahmud Zamaxshariyning sunniylikdagi hanafiy faqih olimi sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan hozirda uning fiqhiy merosini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi ilm ahliga taqdim etildi<sup>45</sup>.

Yangilanayotgan O'zbekistonda Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosini o'rganish ishiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Zamaxshariyshunoslikni yangi bosqichga olib chiqish uchun olimlarimiz oldida qator muhim vazifalar turibdi. Ma'lumki, Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining ko'lami, asarlarining soni haqidagi tadqiqotlar yakuniy, xulosaviy ma'lumotga ega emas. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni jadal olib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yurtimizda so'nggi yillarda dunyo fondlaridagi allomalarimiz ilmiy merosini aniqlash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu borada Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining dunyo fondlaridagi asarlari va nusxalarini aniqlash birinchi navbatdagi dolzarblik kasb etadi. Olim ilmiy merosining ko'laminani aniqlash kelgusidagi fundamental tadqiqotlarga keng yo'l ochib

<sup>44</sup> Qarang: A. Rustamov. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent. 1971. 12- b.

<sup>45</sup> Sayidjalolov S. Mahmud Zamaxshariyning "Ruusu-l-masoyil" asarida hanafiy mazhabi talqini. Tar.fan. bo'y.fal.dok(PhD)diss. Toshkent.2023.

beradi. Chunki Zamaxshariy ilmiy merosining dunyo fondlari bo'yicha tarqalishi hozirga qadar o'rganilgan emas. Allomaning ayrim asarlarining tarqalishi ham qisman aniqlangan. Zamaxshariyshunoslikning yana bir muhim sohasi olim asarlariga turli davr olimlari tomonidan yozilgan sharh va hoshiyalarni o'rganish hisoblanadi. Chunki alloma ilmiy merosiga bag'ishlangan bu nodir manbalar turli mamlakat olimlari tomonidan yozilgan va turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan. Mazkur qo'lyozmalarni aniqlash, nusxalarini jamlash, matnlarini qiyosiy o'rganish, olimning o'z asarida ko'zlagan maqsadining naqadar to'laqonli ochilganligini tahliliy tadqiq etish bu sohada beqiyos ilmiy yangiliklarni beradi.

Mahmud Zamaxshariy asarlarining ilmiy, ilmiy tanqidiy, yig'ma matnlari ustida ishlash va ularni tuzish bo'yicha tadqiqotlar olib borish ham ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki olim ilmiy laboratoriyasining mukammal tahlilini yuqoridagi tizimli tadqiqotlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu borada Zamaxshariy asarlari tarjimalarini qiyosiy o'rganish borasidagi tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar yurtimizda Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilk qadamlar hisoblanadi. Olim ilmiy merosini imkoni boricha to'liq aniqlash, asarlarini jahon qo'lyozma xazinalaridan topish, ularni tavsif va tahlil qilish, qiyosiy o'rganish zarur. Shuningdek uning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib keng kitobxonlarga taqdim etish vaqti ham keldi. Zero, ular yoshlarni el-yurt manfaatlariga xizmat qiluvchi munosib avlod sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi nodir manbalar sanaladi.